

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGİYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEXNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich	
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	148
Ikramova Nasiba Axmadovna	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....	153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	158
Ibragimov Aziz Turayevich	
TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECHEKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOBLASH (MEC) TUGUNLARIGA OPTIMAL YO'NALTIRISH USULLARI	164
Xolmatov Numonjon Meliboyevich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО	171
Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна	
RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	181
Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon	
MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	186
Ikromov Elyor Ibodulloyevich	
TUMANLAR SANOAT SALOHİYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	193
Yusupova Nigina Djurayevna	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	199
O'sarov Abdulla Davronqulovich	
TASHQI SAVDO JARAYONLARINI BOSHQARISHDA "INTEGRATSIYALASHGAN TARIF" INTERAKTIV XIZMATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	207
Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li	
"NAVOIY KMK" AJDA INNOVATION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIY- IQTISODIY KOMPONENTLARI.....	212
Kurbanova Mehriniso, Masharipov Ma'sud	
HUDUDIIY ENERGETIKA TA'MINOTI TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NEYRO- RAVSHAN EKONOMETRIK MODELARI: QASHQADARYO VILOYATI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIDAN DALILLAR.....	219
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA MOLIVAVIY AXBOROT VA BUXGALTERIYA HISOB MEXANIZMLARI	224
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
AUTORSING XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	232
Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o'g'li	



AUTSORSING XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchi

E-mail: mirxonovmirfoziljon@gmail.com

ORCID: 0009-0004-1330-510X

Annotatsiya. Ushbu maqolada autsorsing xizmatlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarga alohida e'tibor qaratilgan. Autsorsing xizmatlarining rivojlanishi ko'plab iqtisodiy, texnologik, institutsional va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida autsorsing xizmatlarining oddiy yordamchi biznes funksiyasidan strategik iqtisodiy resursga aylanayotganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: autsorsing xizmatlari, raqamli transformatsiya, mehnat taqsimoti, raqobat muhiti, raqamli texnologiya, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, ichki omillar, tashqi omillar.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделено факторам, влияющим на развитие аутсорсинговых услуг. Развитие аутсорсинговых услуг формируется в результате взаимодействия множества экономических, технологических, институциональных и социальных факторов. Раскрывается процесс трансформации аутсорсинговых услуг в условиях цифровой экономики из обычной вспомогательной бизнес-функции в стратегический экономический ресурс.

Ключевые слова: аутсорсинговые услуги, цифровая трансформация, разделение труда, конкурентная среда, цифровые технологии, искусственный интеллект, автоматизация, внутренние факторы, внешние факторы.

Abstract. This article pays particular attention to the factors influencing the development of outsourcing services. The development of outsourcing services is shaped by the interaction of numerous economic, technological, institutional, and social factors. The article highlights the transformation of outsourcing services in the digital economy from a simple auxiliary business function into a strategic economic resource.

Keywords: outsourcing services, digital transformation, division of labor, competitive environment, digital technology, artificial intelligence, automation, internal factors, external factors.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi va biznes muhitidagi raqobatning kuchayishi korxonalar faoliyatida autsorsing xizmatlaridan foydalanish ko'lamining kengayishiga olib kelmoqda. Hozirgi sharoitda autsorsing nafaqat yordamchi biznes jarayonlarini tashqi ijrochilarga topshirish vositasi, balki korxonalarning strategik maqsadlariga erishish, innovatsion faoliyatini jadallashtirish, yuqori malakali inson kapitalidan foydalanish va yangi bozorlarga chiqish imkonini beruvchi boshqaruv mexanizmi sifatida shakllanmoqda.

Autsorsing xizmatlarining rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi, mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, raqobat muhitining kuchayishi hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida korxonalar o'z faoliyatida tashqi ixtisoslashgan xizmatlardan foydalanishga tobora ko'proq ehtiyoj sezmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autsorsing xizmatlarini o'rganar ekanmiz, avvalo xizmat deganda mehnat mahsulotini tushunish lozim. Ushbu mahsulotning asosiy belgilanishi bo'lib, insonlarning aniq talablarini qondirish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda xizmat - bu insonlarning ehtiyoj va talablarini qondirishga qaratilgan faoliyatdir¹.

Rossiyalik olim V.I.Dalning lug'atida xizmat tushunchasi quyidagicha talqin etilgan: Xizmat ko'rsatish,

1 Э.С.Файзиев. Сервис тизими фаолияти асослари. Маърузалар матни. Самарқанд, 2007. 11-бет.



yordam, imtiyoz, ko'mak, ko'nglini topmoq, istagini bajo keltirmoq². Biroq ushbu lug'atlarda keltirilgan talqinlarda "xizmat" tushunchasining mohiyati to'liq ifodalanmagan.

Amerikalik iqtisodchi F.Kotler o'zining "Marketing asoslari" nomli kitobida "xizmatlar – bu obyektni sotish jarayonida o'z manfaatini qondirish, muayyan bir naf olish uchun qilingan harakat" degan holda, o'zining fikrini davom ettirib, "ishlab chiqarishda xizmatlar moddiy ko'rinishdagi tovarlar blan bog'liq bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin"³, deb hisoblagan.

G'arb iqtisodchilaridan K.R.Makkonnell, S.L.Bryu xizmatlarga quyidagicha ta'rifni berdi: "xizmatlar (service)-bu ko'zga ko'rinmas bo'lsa-da, ammo uning uchun iste'molchi, firma yoki uning vakili qimmatliroq narsani berishga doimo tayyor turadi"⁴.

Rayzberg, Lozovskiy, Starodubsevalar zamonaviy iqtisodiy lug'atda outsorsingga "...tashkilotning an'anaviy asosiy bo'lmagan funksiyalarini... tashqi ijrochilarga o'tkazish..." deb ta'rif berishgan⁵.

Tadqiqotchi mutaxassis Ivlev (2021) tomonidan outsorsing shunday ta'riflanadi: "... bu "sifat-xarajat-egallik" parametrlari asosida biznes tizimining konfiguratsiyasini optimallashtiradigan tashkiliy qaror; "...outsorsing – bu tomondan qarz olish". Ushbu olim o'z ta'rifida o'zgacha yondashuvni olg'a surgan bo'lib, u xizmatlarni qarz sifatida namoyon qilmoqda⁶.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada bilish nazariyasining mantiqiy yondashuv, induksiya va deduksiya, qiyosiy va omilli tahlil, zamon va makon, taqqoslash, monografik kuzatish kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Autsorsing xizmatlari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etishda mazkur xizmatlarning tarkibiy jihatdan o'zgarib borayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Dastlab outsorsing asosan buxgalteriya hisobi, hujjatlarni qayta ishlash, ma'muriy xizmatlar va texnik qo'llab-quvvatlash kabi standartlashtirilgan funksiyalarni tashqi tashkilotlarga topshirish bilan bog'liq bo'lgan.

Autsorsing xizmatlari rivojlanishining asosiy zamonaviy tendensiyalari

Birinchi muhim tendensiya — outsorsing xizmatlarining raqamlashtirilishi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, buyurtmachi va provayder o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirish hamda xizmat sifatini masofadan monitoring qilish imkonini bermoqda. Natijada outsorsing xizmatlarining geografik chegaralari qisqarib, xalqaro xizmatlar bozorida ishtirok etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Ikkinchi tendensiya — IT-outsorsing va raqamli biznes jarayonlari outsorsingining jadal rivojlanishidir. Korxonalar o'zlarida mavjud bo'lmagan yoki katta investitsiyalarni talab qiladigan texnologik kompetensiyalarni tashqi provayderlardan olishga intilmoqda. Dasturiy ta'minot ishlab chiqish, IT-infratuzilmani boshqarish, bulutli xizmatlar, texnik qo'llab-quvvatlash va kiberxavfsizlik kabi yo'nalishlarga bo'lgan talabning ortishi mazkur tendensiyaning asosiy ifodasidir.

Uchinchi tendensiya — sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining outsorsing xizmatlariga integratsiyalashuvidir. Robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirish, mashinaviy o'qitish va generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish natijasida ilgari katta miqdordagi inson mehnatini talab qilgan jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu holat outsorsing kompaniyalarini oddiy operatsion xizmatlardan texnologik va analitik xizmatlarga o'tishga undamoqda.

To'rtinchi tendensiya — "Business Process as a Service" (BPaaS) va xizmat sifatida texnologiyalardan foydalanishning kengayishidir. Bunda korxona zarur texnologik infratuzilmani mustaqil ravishda yaratish o'rniga tayyor raqamli xizmatdan foydalanadi. Mazkur model boshlang'ich investitsiyalarni kamaytirish va xizmatlarni ehtiyojga qarab kengaytirish imkonini beradi.

Beshinchi tendensiya — bulutli texnologiyalar asosida outsorsing xizmatlarining kengayishidir. Bulutli platformalar ma'lumotlarni saqlash, dasturiy ta'minotdan foydalanish va hisoblash resurslarini masofadan olish imkonini beradi. Bu esa korxonalarni qimmat texnologik infratuzilmani sotib olish va texnik xizmat ko'rsatish zaruratidan qisman ozod qiladi.

2 Даль В.И. Толковый словарь великорусского языка. 2-е изд. М., 1882. Т. IV. С.512.

3 Котлер Ф. Основы маркетинга. М. Прогресс. 1992.-734с.

4 Макконнелл К.Р., Брю С.Л., Экономикс-Принципы, проблемы и политика. /В 2 –х томах. Пер.с англ. –Таллин. Римол. 1993.Т.: 1. -398с.

5 Райзберг,Б.А. (2007) Современный экономический словарь. 5-изд., перераб. И доп./ Б.А.Райзберг, Л.Ш.Лозовский, Е.Б.Стародубцева.– М.:ИНФРА–М.,–495 с.

6 Ивлев, А. (2021) 10 ключевых вопросов аутсорсинга / Ивлев А.: https://up-pro.ru/library/strategi/outsourcing/10_key_quest/ (дата обращения: 30.11.2021 г.)

Oltinchi tendensiya — yuqori qo'shilgan qiymatli bilim xizmatlari outsorsingining rivojlanishidir. Zamonaviy outsorsing bozori oddiy texnik operatsiyalardan bilim va kompetensiyaga asoslangan xizmatlarga siljimoqda. Biznes-analitika, moliyaviy modellashirish, ilmiy-tadqiqot ishlari, muhandislik, konsalting va ma'lumotlar tahlili kabi xizmatlar korxonalar uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Yettinchi tendensiya — gibril outsorsing modellarining shakllanishidir. Korxonalar barcha biznes funksiyalarini to'liq tashqi ijrochiga topshirish o'rniga, ichki resurslar va tashqi provayderlar imkoniyatlarini birlashtirishga intilmoqda. Mazkur model strategik muhim jarayonlar ustidan nazoratni saqlab qolish bilan birga, tashqi ekspertiza va texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi.

Sakkizinchi tendensiya — outsorsing xizmatlarining globalizatsiyalashuvidir. Raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida xizmat ko'rsatuvchi kompaniya va buyurtmachining turli mamlakatlarda joylashishi xizmat ko'rsatish uchun jiddiy to'siq bo'lmay qolmoqda. Natijada outsorsing xalqaro mehnat taqsimotining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

To'qqizinchi tendensiya — kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish talablarining kuchayishidir. Korxona ma'lumotlarining tashqi provayderlarga berilishi axborot xavfsizligi bilan bog'liq risklarni oshiradi. Shu sababli zamonaviy outsorsing shartnomalarida ma'lumotlarning maxfiyligi, ulardan foydalanish huquqi, saqlash muddati, kiberhujumlarga qarshi choralar va javobgarlik mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'ninchi tendensiya — natijaga yo'naltirilgan outsorsing modelining kuchayishidir. An'anaviy modelda xizmat hajmi asosiy mezon sifatida qaralgan bo'lsa, zamonaviy modelda yakuniy natija, xizmat sifati, samaradorlik va biznes ko'rsatkichlariga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli xizmat darajasi to'g'risidagi kelishuvlar (SLA), asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va natijaga asoslangan to'lov mexanizmlaridan foydalanish kengaymoqda.

Autsorsing xizmatlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Autsorsing xizmatlarining rivojlanishi ko'plab iqtisodiy, texnologik, institutsional va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Mazkur omillarni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin.

Ichki omillar korxonaning o'ziga xos xususiyatlari, moliyaviy holati, boshqaruv tizimi, texnologik salohiyati va inson kapitali bilan bog'liq bo'lsa, tashqi omillar makroiqtisodiy muhit, raqamli infratuzilma, davlat siyosati, mehnat bozori, xalqaro raqobat va huquqiy tartibga solish bilan belgilanadi (1-jadval).

1-jadval

Autsorsing xizmatlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Omillar guruhi	Asosiy omillar	Autsorsing rivojlanishiga ta'siri
Iqtisodiy	Xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligi, investitsiya hajmi	Autsorsingga talabni shakllantiradi
Texnologik	Internet, bulutli texnologiyalar, AI, avtomatlashtirish	Masofaviy xizmatlar imkoniyatini kengaytiradi
Mehnat bozori	Malakali kadrlar mavjudligi va ish haqi darajasi	Provayderlarning raqobatbardoshligini belgilaydi
Institutsional	Davlat siyosati va tartibga solish	Sektor rivojlanishi uchun muhit yaratadi
Huquqiy	Shartnoma, intellektual mulk va ma'lumotlarni himoya qilish	Risklarni kamaytiradi
Infratuzilmaviy	Telekommunikatsiya va raqamli infratuzilma	Xizmatlarni masofadan ko'rsatish imkonini beradi
Raqobat	Ichki va xalqaro raqobat	Xizmat sifati va narxiga ta'sir qiladi
Inson kapitali	Raqamli ko'nikmalar, til bilish, professional malaka	Yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlar rivojini ta'minlaydi
Tashkiliy	Korxonaning biznes modeli va boshqaruv tizimi	Autsorsingga beriladigan funksiyalar hajmini belgilaydi
Xalqaro	Global talab va xalqaro standartlar	Xizmatlar eksportini rivojlantiradi

Autsorsing xizmatlariga talabni shakllantiruvchi eng muhim iqtisodiy omillardan biri korxonalar xarajatlarni optimallashtirish zaruratidir. Raqobat kuchaygan sharoitda korxonalar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tannarxini kamaytirish, mavjud resurslardan samaraliroq foydalanish hamda doimiy xarajatlarni optimallashtirishga intiladi. Autsorsing esa ayrim funksiyalarni ixtisoslashgan provayderga topshirish orqali bunday vazifalarni hal qilish imkonini beradi.

Biroq raqamli iqtisodiyot sharoitida outsorsingdan foydalanish qarorini faqat xarajatlarni tejash mezonini asosida baholash yetarli emas. Korxona outsorsing natijasida qo'shimcha qiymat, innovatsion salohiyat,



tezkorlik va strategik moslashuvchanlikka ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun outsorsing samaradorligini baholashda xarajatlar bilan bir qatorda mehnat unumdorligi, xizmat sifati, innovatsiyalarni joriy etish tezligi va mijozlar qoniqishi kabi ko'rsatkichlarni ham hisobga olish lozim.

Autsorsing rivojlanishining yana bir muhim omili — raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasidir. Yuqori tezlikdagi internet, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, bulutli texnologiyalar va raqamli platformalarning mavjudligi xizmatlarni masofadan ko'rsatish imkoniyatini oshiradi. Ayniqsa, xalqaro outsorsing xizmatlari uchun raqamli infratuzilma mamlakatning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Inson kapitali ham outsorsing xizmatlari rivojlanishining strategik omili sifatida namoyon bo'ladi. Xizmatlarning murakkabligi oshib borishi bilan dasturlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, xorijiy tillar va biznes boshqaruvi bo'yicha malakali mutaxassislarga talab ortadi. Shu sababli professional ta'lim va qayta tayyorlash tizimining rivojlanganligi mamlakatning outsorsing bozoridagi pozitsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat xarajatlari va mehnat unumdorligi nisbati ham muhim omildir. Past ish haqi darajasi o'z-o'zidan mamlakatni raqobatbardosh outsorsing markaziga aylantira olmaydi. Chunki xalqaro buyurtmachilar uchun xizmatning narxi bilan bir qatorda uning sifati, bajarilish tezligi, mutaxassislarning malakasi, til kompetensiyasi va texnologik imkoniyatlari ham muhimdir. Shu bois uzoq muddatli istiqbolda arzon mehnat resurslariga emas, balki malakali va yuqori unumdor inson kapitaliga asoslangan outsorsing modeli ustuvor bo'lishi kerak.

Autsorsing rivojlanishiga institutsional va huquqiy muhit ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatuvchi va buyurtmachi o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy jihatdan aniq tartibga solinishi, elektron shartnomalarning qo'llanilishi, intellektual mulk huquqlarining himoyalaniishi va ma'lumotlarni muhofaza qilish mexanizmlarining mavjudligi bozor ishtirokchilarining ishonchini oshiradi.

Shuningdek, soliq va investitsiya muhiti outsorsing xizmatlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir. Xizmatlar eksportini rag'batlantirish, texnologik kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash, startaplar uchun qulay shart-sharoit yaratish va innovatsion faoliyatga investitsiyalarni jalb qilish outsorsing sektorining kengayishiga xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi sharoitida outsorsing xizmatlarini rivojlantirish uchun sezilarli imkoniyatlar mavjud. Mamlakatning nisbatan katta mehnat resurslari, yosh aholining ulushi, IT va xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi hamda IT xizmatlari eksportini kengaytirishga qaratilgan davlat siyosati mazkur sohaning istiqbollarini belgilab beradi.

O'zbekiston uchun outsorsingning eng istiqbolli yo'nalishlari sifatida dasturiy ta'minot ishlab chiqish, IT xizmatlari, biznes jarayonlari outsorsingi, call-markaz xizmatlari, raqamli marketing, buxgalteriya xizmatlari, ma'lumotlarni qayta ishlash va bilim jarayonlari outsorsingini ko'rsatish mumkin.

Bunda mamlakatning raqobat ustunligini faqat mehnat resurslarining nisbatan arzonligi asosida shakllantirish uzoq muddatli strategik maqsadlarga to'liq javob bermaydi. Raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun xizmatlar sifatini oshirish, xalqaro sertifikatsiyadan o'tgan mutaxassislar sonini ko'paytirish, xorijiy tillarni biladigan kadrlar tayyorlash, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatish tizimini yaratish zarur.

Autsorsing xizmatlari rivojlanishining konseptual modeli

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, outsorsing xizmatlari rivojlanishining konseptual modelini quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin:

Raqamli transformatsiya → texnologik imkoniyatlarning kengayishi → korxonalarning tashqi kompetensiyalarga ehtiyoji → outsorsing xizmatlariga talabning ortishi → outsorsing provayderlari rivojlanishi → xizmatlar sifati va raqobatning kuchayishi → innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarning kengayishi → xalqaro xizmatlar eksportining o'sishi.

Mazkur modeldan ko'rinadiki, outsorsing xizmatlari rivojlanishi alohida korxona darajasidagi jarayon bo'lib qolmasdan, makroiqtisodiy va institutsional omillar bilan chambarchas bog'liq tizimli hodisadir.

Autsorsing bozorining rivojlanishida "talab—taklif—texnologiya—inson kapitali—institutsional muhit" o'zaro bog'langan tizimni tashkil etadi. Korxonalar tomonidan outsorsingga bo'lgan talabning ortishi provayderlar sonining ko'payishiga olib keladi. Provayderlar o'rtasidagi raqobat esa xizmatlar sifati va texnologik darajasining oshishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida, texnologik rivojlanish yangi xizmat turlarining paydo bo'lishini rag'batlantiradi va outsorsing bozorining kengayishiga zamin yaratadi.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda outsorsing xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalari raqamlashtirish, avtomatlashtirish, sun'iy intellektdan foydalanish, yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarning kengayishi, gibrid biznes modellarining shakllanishi, xalqaro integratsiya va kiberxavfsizlik talablarining kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Autsorsing xizmatlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar esa iqtisodiy, texnologik, institutsional, huquqiy, infratuzilmaviy va inson kapitaliga oid omillarning o'zaro ta'siri asosida shakllanadi. Shu sababli outsorsing sektorini rivojlantirishga qaratilgan davlat va korporativ siyosat kompleks yondashuvga asoslanishi lozim.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida autsorsing xizmatlari oddiy yordamchi biznes funksiyasidan strategik iqtisodiy resursga aylanmoqda. Uning rivojlanish istiqbollari korxonalarning xarajatlarni optimallashtirish ehtiyoji bilangina emas, balki raqamli transformatsiya, innovatsiyalar, inson kapitali va xalqaro mehnat taqsimotidagi o'zgarishlar bilan belgilanadi. O'zbekiston sharoitida esa autsorsing xizmatlarini rivojlantirish yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlar eksportini kengaytirish, yoshlar bandligini ta'minlash, raqamli iqtisodiyotning yangi segmentlarini shakllantirish va mamlakatning xalqaro xizmatlar bozorida raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo'nalishi sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Файзиев Э.С. Сервис тизими фаолияти асослари: маърузалар матни. – Самарқанд, 2007. – 11-бет.
2. Даль В.И. Толковый словарь великорусского языка. – 2-е изд. – М., 1882. – Т. IV. – С. 512.
3. Котлер Ф. Основы маркетинга. – М.: Прогресс, 1992. – 734 с.
4. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: в 2-х томах / пер. с англ. – Таллин: Римол, 1993. – Т. 1. – 398 с.
5. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2007. – 495 с.
6. Ивлев А. 10 ключевых вопросов аутсорсинга. – 2021. – URL: https://up-pro.ru/library/strategi/outsourcing/10_key_quest/ (дата обращения: 30.11.2021).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100